**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

JALOLOV IKROMJON ISOMIDDINOVICH

L. XYORMANDER FAZOSIDA OPTIMAL KVADRATUR FORMULALAR

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK: 519.644

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

JALOLOV IKROMJON ISOMIDDINOVICH

L. XYORMANDER FAZOSIDA OPTIMAL KVADRATUR FORMULALAR

01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/FM604 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent Davlat Transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (ik-fizmat.nuu.uz) va “Ziyonet” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Shadimetov Xolmatvay Maxkambayevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Hayotov Abdullo Roxmonovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Urunboyev Erkin
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning “________”______________ 2025-yil soat _______ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_______” _______________ kuni tarqatildi.

(2025 yil “_______” ________________ dagi ________ raqamli reestr bayonnomasi)

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

R.D. Aloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida tebranishlar nazariyasi, elektrodinamika va mexanika masalalariga oid xususiy hosilali differensial tenglamalar, regulyar va singulyar integral tenglamalar yuqori aniqlik bilan sonli yechish usullarini ishlab chiqishga olib keldi. Bu esa optimal kvadratur va kubatur formulalarini qurish muhimligini kasb etadi. Aksariyat hollarda, aniq integrallarni hisoblash jarayonini optimallashtirish hisob-kitoblarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Katta hajmdagi hisoblashlar o‘tkazilayotgan vaqtda, kvadratur va kubatur formulalaridan foydalanish jarayonida ularni optimallashtirish juda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu bois, optimal kvadratur va kubatur formulalarini qurish uchun yangi algoritmlar ishlab chiqish va aniq integrallarni yuqori aniqlik bilan taqribiy hisoblash, shuningdek, differensiallanuvchi funksiyalarning L. Xyormander fazosida optimal kvadratur formulalarini qurish hisoblash matematikasining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda.

Hozirgi kunda jahonda L. Xyormanderning funksional fazolarida yuqori aniqlikdagi optimal va eng samarali kvadratur hamda kubatur formulalarini qurish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, L. Xyormander fazosida optimal va eng yaxshi kvadratur va kubatur formulalarini qurish, ularning mavjudligini va yagona ekanligini isbotlash, shuningdek, xatoliklarni baholash masalalari keng qo‘llanilmoqda. Tebranish jarayonlarini matematik modellashtirishda yuzaga keladigan xususiy hosilali differensial tenglamalar, regulyar va singulyar integral tenglamalarning sonli yechimlari, optimal kvadratur va kubatur formulalari yordamida ifodalanadi. Bu, o‘z navbatida, sonli usullar nazariyasi, hisoblash matematikasi va boshqa tegishli sohalar tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlaridir. Shuning uchun, L. Xyormander fazosida optimal kvadratur va kubatur formulalarni qurish, ularning xatoliklarini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muhim ilmiy tadqiqotlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqlari, jumladan, quyosh fizikasi, geofizika, tebranishlar nazariyasi, mexanika masalalarining sonli-analitik yechimlarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, turli fazolarda optimal panjarali kvadratur, kubatur va interpolyatsion formulalar qurish, ularning xatoliklarini L. Xyormander fazolarida baholash bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. “Funksional analiz, matematik fizika, differensial tenglamalar, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”[1] kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son Qarori.

O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qaror ijrosini ta’minlashda umumlashgan funksiyalar asosida Furye almashtirishlaridan foydalanib, kvadratur va kubatur formulalar qurish, L. Xyormander fazolarida ularning xatoliklarini baholash uchun optimal kvadratur formulalar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida tebranishlar nazariyasi, elektrodinamika, mexanika masalalaridagi xususiy hosilali differensial tenglamalar, regulyar va singulyar integral tenglamalarni yuqori aniqlikda sonli yechish optimal kvadratur va kubatur formulalar qurishga olib kelinadi. Bunday masalalarni yechish bilan ko‘pgina matematiklar shug‘ullangan: Gauss, Chebishev, Grigori, Eyler, Nyuton va boshqalar. Integral tenglamalarni sonli yechishda optimal kvadratur va kubatur formulalari katta nazariy ahamiyatga ega. Shu sababli, ko‘plab tadqiqotlar optimal panjarali kvadratur va kubatur formulalarini qurishga bag‘ishlangan, masalan, S.L.Sobolev, A.N. Kolmogorov, S.M. Nikolskiy, N.S.Baxvalov, I.Babushka, I.P.Misovskix, V.V.Ivanov, N.P.Korneychuk, D.A. Mclaren, G.N.Salixov, M.D. Ramazanov, V.I. Polovinkin, M.V. Noskov, X.M. Shadimetov, A.R. Hayotov va boshqalar. Kubatur formulalar nazariyasida klassik yondashish I.P. Misovskix, A. Sard, A.X. Stroud, A.J. Duran, Y.G. Shi, M.I Israilov ishlarida rivojlantirilgan.

Optimal kvadratur formulalarni qurish uchun yangi algoritmlarni ishlab chiqish, funksiyalarning turli fazolarida ularning xatoliklarini baholash muhim vazifalardandir. Hozirgi vaqtda taqribiy integrallash uchun formulalarni optimallashtirish masalasi – bu berilgan funksiyalar fazosida xatolik funktsionali normasining minimumini topishdan iborat. Kvadratur formula xatolik funksionali normasini hisoblash va optimal kvadratur formula qurish masalalari birinchi bo‘lib A.Sard va S.M. Nikolskiylarning ishlarida qaralgan. Barcha $\tilde{W}_p^r\left(r=1.2,\cdots 1\le p\le\infty\right)$ sinflar uchun A.A. Jensikbayev ishlarida, kvadratur formulalar uchun masala yechilgan. Optimal kvadratur formula xatolik funksionali normasi nolga intiluvchi eng yaxshi yaqinlashish tartibini aniqlash va optimal kvadratur formula qurish imkoniyati bo‘lmasa, u holda asimptotik optimal kvadratur formula qurish masalalarini asosan $L_2^{(m)}(R^n)$, $L_2^{(m)}(\Omega)$ va $\tilde{L}_2^{(m)}$ fazolarda S.L.Sobolev qaragan. Optimal kvadratur formula qurish masalasini $W_2^{(m)}$ fazoda birinchi bo‘lib A.Sard qaragan. Commanning ishida A.Sard masalasi $m=2$ da ixtiyoriy N uchun qaralgan. $S^{n-1}\subset R^n$ sferada algebraik aniqlikdagi formulalarni S.L.Sobolev ($n=3$) va G.N. Salixov $\left(n=4,5\right)$lar qurganlar. M.D.Ramazonov va T.X. Sharipov ishlarida chegara qatlami bilan kubatur formulalarini qurishning yangi algoritmlari yaratganlar hamda bunday formulalarning asimptotik optimalligini isbotladilar.

Differensiallanuvchi funksiyalarning Gilbert va Banax fazolarida mos differensial operatorlarning diskret analoglariga asoslanib, optimal kvadratur va interpolyatsion formulalar, yarim normaga minimum beruvchi interpolyatsion natural splaynlar qurish masalalari bo‘yicha S.L. Sobolev, Z.J. Jamalov, X.M. Shadimetov, G.V. Milovanović, A. Cabada, A.R. Hayotov, F.A. Nuraliyev, D.M. Axmedov va A.K. Boltayevlarning tadqiqotlari natijalarini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti “Informatika va kompyuter grafikasi” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi differensiallanuvchi funksiyalarning L. Xyormander fazosida panjarali optimal kvadratur formulalar qurish va ularning xatolik funksionali normalarini hisoblashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vaznli kvadratur formulalarning xatolik funksionallari ekstremal funksiyasi va normasini topish;

L. Xyormanderning $H_2^{\mu}\left(R\right)$ fazosida vaznli optimal kvadratur formula mavjudligi va yagonaligini isbotlash;

$H_2^{\mu}\left(R\right)$ fazoda ixtiyoriy m da vaznli kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlarini topish uchun differensial operatorning diskret analogini qurish;

L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ fazosida panjarali optimal kvadratur formulalar qurish.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqotning obyekti kvadratur formulalar va L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ funksional fazosida chiziqli differensial operatorlarning dikret analoglarini qurishdan iborat.

Tadqiqotning predmeti. Ekstremal funksiyalar, optimal kvadratur formulalar, differensial operatorning dikret analoglari, L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ funksional fazosida umumlashgan funksiyalar va kvadratur formulalar nazariyasidan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida hisoblash matematikasi, funksional analiz, differensial tenglamalar nazariyasi, umumlashgan funksiyalar, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

vaznli kvadratur formulalarning xatolik funksionali normasi kvadratining ifodasini ekstremal funksiya tushunchasidan foydalanib topilgan;

L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ fazosida vaznli optimal kvadratur formula mavjudligi va yagonaligini Sobolev metodi yordamida isbotlangan;

$H_2^{\mu}(R)$ fazoda ixtiyoriy m da vaznli kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlarini aniqlash uchun differensial operatorning diskret analogi qurilgan;

L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ fazosida $m=1,2$ da differensial operatorlarning diskret analogidan foydalanib panjarali optimal kvadratur formulalar qurilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot ishida qurilgan diskret operator, Furye qatorining o‘zgaruvchan koeffitsiyentlarini sonli hisoblashda qo‘llanilgan;

panjarali optimal kvadratur formulalar, shamol turbinalarining samarali parametrlarini aniqlash maqsadida tuzilgan matematik model tenglamalarini taqribiy yechishda qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kvadratur formulalar nazariyasi hisoblash matematikasi, funksional analiz, differensial tenglamalar nazariyasi, umumlashgan funksiyalar, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi metodlarini qo‘llanilganligi, hamda matematik mulohazalarning qatiyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati L. Xyormander fazosida aniq integrallarni yetarli aniqlikda taqribiy hisoblash uchun panjarali optimal kvadratur formulalar qurilganligi va ularning xatoligi yuqoridan baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati panjarali optimal kvadratur formulalar aniq integrallarni sonli taqribiy hisoblash usullari yordamida shamol turbinalarining samarali parametrlarini aniqlash maqsadida tuzilgan matematik model tenglamalarini taqribiy yechishda qo‘llanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. L. Xyormanderning $H_2^{\mu}\left(R\right)$ fazosida panjarali optimal kvadratur formulalar qurish bo‘yicha olingan yangi ilmiy natijalar asosida:

yuqori tartibli differensial operatorning $D_m\left[\beta\right]$ diskret analogi asosida qurilgan optimal kvadratur formuladan “Shamolning past tezligi uchun mo‘ljallangan vertikal o‘qli shamol turbinasi yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasida shamol turbinalarining samarali parametrlarini aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T. O‘rozboyev nomidagi mexanika va inshotlar seysmik mustahkamligi institutining 2024-yil 5-iyundagi 508-3-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, shamol turbinalarining samarali parametrlarini aniqlash jarayonida hosil bo‘lgan matematik model tenglamalarini taqribiy yechish imkonini bergan;

differensiallanuvchi funksiyalarning L. Xyormander fazosida qurilgan optimal kvadratur formulalardan “Birjinslimas g‘ovak muhitida suyuqlik sizishi va moddalar ko‘chishi gidrodinamik modellarini tuzish va sonli tadqiq etish” mavzusidagi fundamental grantda makroporali va mikroporali silindrik zonalardan tashkil topgan g‘ovak muhitlarda adsorbsiya hodisasini hisobga olib moddaning anomal ko‘chishi masalalarini sonli tadqiq etishda foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024-yil 10-iyundagi 10-2750-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, makroporali va mikroporali silindrik zonalardan tashkil topgan g‘ovak muhitlarda adsorbsiya hodisasini hisobga olib modda ko‘chishi masalalarini sonli tadqiq etishda zonalar o‘rtasida nisbiy umumiy va jamlanma modda almashinish uchun integral munosabatlarni samarali hisoblash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 13 ta ilmiy amaliy anjumanlarda, jumladan 10 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining elon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan 3 tasi xorijiy va 9 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi bitta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaninng hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissersatsiyaning hajmi 78 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzu bo‘yicha dunyo miqyosidagi ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“L. Xyormander fazosida kvadratur formulalarning xatoligi, mavjudligi va yagonaligi hamda optimal koeffisiyentlarni topish algoritmi”** deb nomlangan birinchi bobi davriy bo‘lmagan $H_2^{\mu}(\Omega)$ va $W_2^m(\Omega)$ fazolar to‘g‘risida ma’lumotlarga va optimal kvadratur formulalar qurish algoritmiga bag‘ishlangan, shuningdek, vaznli kvadratur formulaning xatolik funksionali ekstremal funksiyasi va normasi topilgan va L.Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ fazosida vaznli kvadratur formulaning mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

1.1. paragrafda davriy bo‘lmagan $H_2^{\mu}(\Omega)$ va $W_2^m(\Omega)$ fazolar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Bu yerda $H_2^{\mu}(\Omega)$ va $W_2^m(\Omega)$ fazolar μ ning faqatgina bitta qiymatida, ya’ni $\mu=\left(1+y^2\right)^{\frac{m}{2}}$ bo‘lgandagina bir-biriga mos kelib, ular izomorf bo‘ladi va normalari ekvivalent bo‘lib quyidagicha aniqlanadi:

$$\left\|f(x)\right|H_2^{\mu}(R)\| = \left\{\int_{-\infty}^{\infty}\left|F^{-1}\left[(1+y^2)^{m/2}\cdot F\left[f(x)\right](y)\right]\right|^2 dx\right\}^{1/2},$$

bunda F va F^{-1} lar Furyening to‘g‘ri va teskari almashtirishlari:

$$F\left[f(x)\right](y)=\int_{-\infty}^{\infty} f(x)\mathrm{e}^{2\pi iyx}dx \text{ ва } F^{-1}\left[f(x)\right](y)=\int_{-\infty}^{\infty} f(x)\mathrm{e}^{-2\pi iyx}dy.$$

L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ fazosida quyidagi ko‘rinishdagi kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 p(x)f(x)dx \approx \sum_{\beta=0}^{N} C_\beta f(x_\beta), \tag{1}$$

kvadratur formulaning xatolik funksionali

$$\ell_N(x)=\varepsilon_{[0,1]}(x)p(x)-\sum_{\beta=0}^{N} C_\beta \delta(x-x_\beta), \tag{2}$$

ko‘rinishdan iborat. Bu yerda C_β, $x_\beta(x_\beta\in[0,1])$ lar mos ravishda kvadratur formulaning koeffitsiyentlari va tugun nuqtalari, $p(x)$- vazn funksiyasi, $\varepsilon_{[0,1]}(x)$ esa $[0,1]$ kesmaning xarakteristik funksiyasi, $\delta(x)$ - Dirakning delta funksiyasi va $f(x)\in H_2^{\mu}(R)$.

Integral bilan kvadratur yig‘indi orasidagi ayirmaga kvadratur formulaning xatoligi deyiladi va xatolik funktsionalining f funktsiyalardagi qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$(\ell_N, f)\equiv\int_{-\infty}^{\infty}\ell_N(x)f(x)dx=\int_0^1 p(x)f(x)dx-\sum_{\beta=0}^{N} C_\beta f(x_\beta). \tag{3}$$

(1) - kvadratur formula φ funktsiyaga aniq deyiladi, agar (3) - formulada f ning o‘rniga φ ni qo‘yganda u nolga aylansa. Kvadratur formula aniq bo‘lgan funktsiyalar to‘plami, ℓ_N xatolik funksionali yadrosini tashkil etadi.

Koshi-Shvarts tengsizligidan

$$|(\ell_N, f)| \leq \left\| \ell_N \mid H_2^{\mu*} \right\| \cdot \left\| f \mid H_2^{\mu} \right\|.$$

(1) - kvadratur formula xatoligining absolyut qiymati (2) - xatolik funktsionalining $H_2^{\mu*}$ qo‘shma fazodagi normasi bilan yuqoridan baholanadi:

$$\left\| \ell_N \mid H_2^{\mu*} \right\| = \sup_{\left\| f | H_2^{\mu} \right\| = 1} |(\ell, f)|. \tag{4}$$

Endi ketma-ket quyidagi masalalarni yechishimizga to‘g‘ri keladi.

1- masala. (1) - kvadratur formulaning $\ell_N(x)$ xatolik funksionali normasini hisoblash kerak, ya’ni

$$\left\| \ell_N(x) \middle| H_2^{\mu*}(0,1) \right\| = \sup_{\|f\| \neq 0} \left| \ell(f) \right| / \left\| f(x) \middle| H_2^{\mu}(0,1) \right\|. \tag{5}$$

2- masala. Fiksirlangan x_β tugun nuqtalarda shunday C_β koeffitsiyentlarni topish kerakki, quyidagi tenglik o‘rinli bo‘lsin

$$\left\| \overset{0}{\ell}_N(x) \middle| H_2^{\mu*}(0,1) \right\| = \inf_{C_\beta} \left\| \ell_N(x) \middle| H_2^{\mu*}(0,1) \right\|. \tag{6}$$

$H_2^{\mu*}(0,1)$ fazosida (2) - xatolik funktsionalining normasini topish uchun uning ekstremal funksiyasidan foydalaniladi.

Ta’rif 1. $\psi_\ell(x)$ funksiya $\ell_N(x)$ funksionalning ekstremal funksiyasi deyiladi, agar quyidagi tenglik o‘rinli bo‘lsa,

$$(\ell_N(x), \psi_\ell(x)) = \left\| \ell_N \middle| H_2^{\mu*}(0,1) \right\| \cdot \left\| \psi_\ell \middle| H_2^{\mu}(0,1) \right\|. \tag{7}$$

1.2 paragrafda (1) - ko‘rinishdagi kvadratur formulaning (2) - xatolik funksionali ekstremal funksiyasi va normasini topish qaraladi va quyidagi isbotlangan:

Teorema 1. (2) - xatolik funksionalining ekstremal funksiyasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$\psi_\ell(x) = [p(x) \cdot \varepsilon_{[0,1]}(x)] * v_m(x) - \sum_{\beta=0}^{N} C_\beta v_m(x - h\beta), \tag{8}$$

bunda $v_m(x) = F^{-1}[(1+y^2)^{-m}](x)$, $H_2^{\mu*}(R)$ fazoda xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$\left\| \ell_N(x) \middle| H_2^{\mu*}(R) \right\|^2 = \int_{-\infty}^{\infty} \left| F^{-1}\left\{ (1+y^2)^{-m/2} F[\ell_N(x)](y) \right\}(x) \right|^2 dx.$$

1.3 paragrafda optimal kvadratur formulaning mavjudligi va yagonaligi yaqqol ko‘rsatilgan va quyidagilar isbotlangan.

Lemma 1. Quyidagi tenglik o‘rinlidir

$$\left\| \sum_{\beta=0}^{N} C_\beta \delta(x - h\beta) \mid H_2^{\mu*} \right\|^2 = \int_{-\infty}^{\infty} \left| \sum_{\beta=0}^{N} C_\beta v_{\frac{m}{2}}(x - h\beta) \right|^2 dx.$$

Lemma 2. Quyidagi

$$\left\{v_{m/2}(x-\beta h)\right\}_{\beta=0}^{N}$$

sistema chiziqli bog‘liq bo‘lmagan sistemadan iboratdir.

Bundan esa $\delta\left(x-h\beta\right), \beta=0,1,...,N$ ning ham $H_2^{\mu*}\left(R\right)$ fazoda chiziqli bog‘liq emasligi kelib chiqadi. Shunday qilib, $v_{m/2}\left(x-h\beta\right), \beta=0,1,...,N$ funksiyaning chiziqli qobig‘i $L_2\left(R\right)$ fazoning $\left(N+1\right)$- o‘lchovli fazo ostidan iborat bo‘ladi. Optimal kvadratur formulaning mavjudligi va yagonaligi yuqoridagi lemmalar va ushbu fazo ostidagi mavjudlik va yagonalik nazariyalari hamda eng yaxshi yaqinlashishdan kelib chiqadi.

Shunday qilib, quyidagi o‘rinli:

Teorema 2. L. Xyormanderning $H_2^{\mu}\left(R\right)$ fazodagi optimal kvadratur formulaning quyidagi

$$\sum_{\beta=0}^{N} C_\beta v_m(h\alpha-h\beta)=\int_{-\infty}^{\infty}\varepsilon_{[0,1]}(y)\cdot v_m(h\alpha-y)dy,\ \alpha=0,1,2,...,N, \tag{9}$$

tenglamalar sistemasini qanoatlantiruvchi koeffitsiyentlari mavjud va u yagonadir.

1.4. paragrafda esa $H_2^{\mu}\left(R\right)$ fazoda kvadratur formulalarning optimal koeffitsiyentlarini aniqlash algoritmi qaralgan va (9) sistemani har doim ham ma’lum bo‘lgan metodlar bilan yechib bo‘lmasligi isbotlangan. Shuning uchun ham S.L.Sobolev tomonidan kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlarini aniqlaydigan metod tavsiya qilingan.

Shunga asosan $C_\beta=C[\beta]$ va $v_m(h\beta)=v_h^{(m)}[\beta]$ belgilashlarni kiritib, (9)-sistemani diskret argumentli funksiyalarni o‘ramasi shaklida yozish mumkin, ya’ni:

$$C[\beta]*v_h^{(m)}[\beta]=f_m[\beta], \beta=0,1,...,N, \tag{10}$$

$$C[\beta]=0,\ h\beta\notin[0,1], \tag{11}$$

bu yerda

$$f_m[\beta]=\int_0^1 p(y)\cdot v_m(h\beta-y)dy. \tag{12}$$

(10) - (11) tenglamalar sistemasini B sistema deb belgilaymiz.

Quyidagi masalani qaraymiz.

B masala. *$f_m[\beta]$ berilganda B sistemani qanoatlantiruvchi $C[\beta]$ diskret funktsiyani topish.*

Bu metodning asosiy g‘oyasi $C[\beta]$ noma’lum funksiyani $u_h^m[\beta]=u^m(h\beta)$ funksiyaga almashtrishdan iboratdir.

Aynan esa, $C[\beta]$ o‘rniga

$$u_h^m[\beta]=v_h^{(m)}[\beta]*C[\beta], \tag{13}$$

noma’lum funksiya kiritiladi.

U holda quyidagi

$$D_m[\beta]*v_h^m[\beta]=\delta\left[\beta\right], \tag{14}$$

tenglikni qanoatlantiruvchi $D_m(h\beta)=D_h^{(m)}[\beta]$, operatorni topish zarur bo‘ladi, bu yerda $\delta[\beta]=\begin{cases}1, & \beta=0,\\ 0, & \beta\neq 0.\end{cases}$

(14) ni hisobga olib (13) dan quyidagini olamiz

$$C[\beta]=D_h^{(m)}[\beta]*u[\beta]. \tag{15}$$

Endi navbatdagi masalani yechishga to‘gri keladi.

B1 masala. $h\beta\notin[0,1]$ bo‘lganda $u_h^{(m)}[\beta]$ funktsiyani topish.
Quyidagi isbotlangan:

Teorema 3. $u^m(h\beta)$ funksiya quyidagi ko‘rinishga ega

$$u_h^m[\beta]=\begin{cases}f_m[\beta], & h\beta\in[0,1]\\ \sum\limits_{\alpha=0}^{N}C[\alpha]v_m(h\beta-h\alpha), & h\beta\notin[0,1]\end{cases}. \tag{16}$$

1.5. paragrafda optimal koeffitsiyentlarni topish uchun S.L. Sobolevning yaratgan algoritmini modifikatsiyalash qaralgan. Ushbu usul yordamida $F\left[\hat{v}_m(x)\right](p)$ diskret funksiyani aniqlash uchun Furye almashtrishlari yordamida isbotlangan ushbu lemmadan foydalanamiz.

Lemma 3. Quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi

$$\sum_{\beta=-\infty}^{\infty}h^{-1}[1+(p-\beta h^{-1})^2]^m=\sum_{\beta=-\infty}^{\infty}v_m(h\beta)\mathrm{e}^{(2\pi i\beta hp)}. \tag{17}$$

Dissertatsiyaning **“Differensial operatorlar va ularning diskret analoglarini qurish hamda fundamental yechimlarini topish”** deb nomlangan ikkinchi bobi differensial operatorlar, ularning diskret analoglari va fundamental yechimlarini topishga bag‘ishlangan.

Ba’zi bir differentsial operatorlarning diskret analogi optimal kvadratur, kubatur va optimal interpolyatsion formulalarning koeffitsiyentlarini topish uchun muhim rol o‘ynaydi. Shu munosabat bilan biz differentsial operatorni qurish masalasini qaraymiz va $v_m(x)$ funksiya $\left(1-\frac{d^2}{(2\pi)^2dx^2}\right)^m$ differensial operatorning fundamental yechimidan iborat ekanligini ko‘rsatamiz. Bu differensial operatorning diskret analogi bo‘lgan $D_m[\beta]$ operatori quyidagi

$$D_m[\beta]*v_m[\beta]=\delta[\beta],$$

tenglikni qanoatlantirishini ham ko‘rsatamiz, bu yerda

$$\delta[\beta]=\begin{cases}1, & \beta=0\\ 0, & \beta\neq 0\end{cases},\qquad h=\frac{1}{N},\omega>0,N=1,2,...$$

2.1. paragrafda $2m-$ tartibli differensial operatorning va fundamental yechimini topish uchun quyidagi lemmadan foydalanamiz.

Lemma 4. Quyidagi rekurrent formula o‘rinlidir

$$\left(1-\frac{d^2}{\left(2\pi\right)^2 dx^2}\right)\nu_m\left(x\right)=\nu_{m-1}\left(x\right),\ m=2,3,...,\ \ \nu_1\left(x\right)=\pi \mathrm{e}^{-2\pi|x|}. \qquad (18)$$

Ushbu lemma yordamida quyidagi teorema isbotlanadi.

Teorema 4. Diskret analogi $D_m[\beta]*\nu_m[\beta]=\delta[\beta]$ tenglikni qanoatlantiruvchi $D_m\left[\beta\right]$ diskret funksiyaning $2m$- tartibli differensial operatori quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$\left(1-\frac{d^2}{\left(2\pi\right)^2 dx^2}\right)^m, \qquad (19)$$

va $\nu_m\left(x\right)$ funksiya (19) differensial operatorning fundamental yechimidan iborat bo‘lib, ya’ni quyidagi tenglik o‘rinlidir

$$\left(1-\frac{d^2}{\left(2\pi\right)^2 dx^2}\right)^m \nu_m\left(x\right)=\delta\left(x\right). \qquad (20)$$

2.2. paragrafda $D_1\ [h\beta]$ dikret operator qurilishining algoritmi berilgan. Ushbu

$$D_1\left[\beta\right]*\nu_1\left[\beta\right]=\delta\left[\beta\right], \qquad (21)$$

teglikni qanoatlantiruvchi $D_1\ [h\beta]$ operatorini qurish algoritmiga asosan quyidagi isbotlanadi, bu yerda

$$\nu_1\left[\beta\right]=F^{-1}\left\{\left[1+y^2\right]^{-1}\right\}\left(x\right), x=h\beta$$

Teorema 5. $\left[1-\frac{1}{\left(2\pi\right)^2}\frac{d^2}{dx^2}\right]$ differensial operatorining (21) – tenglikni qanoatlantiruvchi $D_1\left[\beta\right]$ diskret analogi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$D_1\left[\beta\right]=\frac{1}{\pi}\begin{cases}\dfrac{\mathrm{e}^{4\pi h}+1}{\mathrm{e}^{4\pi h}-1}, \ \beta=0\\[2mm] \dfrac{\mathrm{e}^{4\pi h}}{1-\mathrm{e}^{4\pi h}}, \ |\beta|=1.\end{cases}$$

2.3. Paragrafda bir differensial operatorining $D_m\left(h\beta\right)$ dikret analogini qurish algoritmi qaraladi va $m=2$ da $D_2\left(h\beta\right)$ operatorining aniq ko‘rinishi ko‘rsatilgan bo‘lib, quyidagi isbotlanadi.

Teorema 6. $D_2\left[\beta\right]*\nu_2\left[\beta\right]=\delta\left(h\beta\right)$ tenglikni qanoatlantiruvchi $D_2\left[\beta\right]$ operator quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$D_2[\beta]=\frac{1}{\pi\left(2\pi h\operatorname{ch}(2\pi h)-\operatorname{sh}(2\pi h)\right)}\begin{cases}2\left(\dfrac{2\pi h-\operatorname{sh}(2\pi h)\operatorname{ch}(2\pi h)}{2\pi h\operatorname{ch}(2\pi h)-\operatorname{sh}(2\pi h)}-2\operatorname{ch}(2\pi h)\right)+\dfrac{A_1}{\lambda_1},\ \beta=0\\ 1+A,\ |\beta|=1\\ A_1\lambda_1^{|\beta|-1},\ |\beta|\geq 2\end{cases}\qquad(22)$$

bu yerda $\lambda_1=\dfrac{\left(2\pi h-\operatorname{sh}(2\pi h)\operatorname{ch}(2\pi h)\right)-\sqrt{\left(1-\operatorname{ch}^2(2\pi h)\right)\left(4\pi^2h^2-\operatorname{sh}^2(2\pi h)\right)}}{2\pi h\operatorname{ch}(2\pi h)-\operatorname{sh}(2\pi h)}$,

$|\lambda_1|<1$ va h – kichik parametr.

2.4. - 2.5. paragraflarda $\left[1-\dfrac{1}{(2\pi\omega)^2}\dfrac{d^2}{dx^2}\right]^m$ differensial operatorning $D_m[\beta]$ diskret analogini qurish uchun Furye almashtirishidan aniqlangan $\overset{\ddagger\cdot}{v}_m(x)$ funksiyasi qaralgan.

Teorema 7. $F[\overset{\ddagger\cdot}{D}_m(x)]=\left\{F[\overset{\ddagger\cdot}{v}_m(x)]\right\}^{-1}$ tenglikni qanoatlantiradigan $\left[1-\dfrac{1}{(2\pi\omega)^2}\dfrac{d^2}{dx^2}\right]^m$ differensial operatorining $D_m[\beta]$ diskret analogini aniqlash uchun $\overset{\ddagger\cdot}{v}_m(x)$ funksiyani Furye almashtirishi, quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$F\left[\overset{\ddagger\cdot}{v}_m(x)\right](p)=\frac{\pi(2m-2)!}{2^{2m-2}[(m-1)!]^2}\left[\frac{\lambda\left(e^{4\pi h}-1\right)}{-\lambda^2e^{2\pi h}+\lambda\left(e^{4\pi h}+1\right)-e^{2\pi h}}\right]+$$

$$\frac{\pi}{2^{2m-2}(m-1)!}\sum_{k=0}^{m-1}\frac{(2m-k-2)!(4\pi h)^k}{k!(m-k-1)!}\left[\frac{e^{2\pi h}}{e^{2\pi h}-\lambda}\sum_{i=0}^{k}\left(\frac{\lambda}{e^{2\pi h}-\lambda}\right)^i\cdot\right.$$

$$\left.\cdot\sum_{\rho=0}^{i}(-1)^{i-\rho}\frac{i!}{\rho!(i-\rho)!}\rho^k+\frac{\lambda e^{2\pi h}}{\lambda e^{2\pi h}-1}\sum_{i=0}^{k}\left(\frac{1}{\lambda e^{2\pi h}-1}\right)^i\sum_{\rho=0}^{i}(-1)^{i-\rho}\frac{i!}{\rho!(i-\rho)!}\rho^k\right],\qquad(23)$$

bu yerda $\Delta^i\gamma^k$ - γ^k dan olingan $i-$ tartibli chekli ayirma, $\Delta^i0^k=\Delta^i\gamma^k\Big|_{\gamma=n}$.

Teorema 8. (20) tenglikni qanoatlantiruvchi $\left[1-\dfrac{1}{(2\pi)^2}\dfrac{d^2}{dx^2}\right]^m$ differensial operatoratorining diskret analogi quyidagicha aniqlanadi

$$F\left[\overset{\ddagger}{D}_m[\beta]\right]=\frac{2^{2m-2}\left((m-1)!\right)^2}{\pi(2m-2)!}\begin{cases}\sum\limits_{k=1}^{m-1}\dfrac{T^m\left(\lambda_{1,k}\right)\lambda_{1,k}^{|\beta|}}{\lambda_{1,k}^2L_{2m-2}'\left(\lambda_{1,k}\right)}, & |\beta|\geq 2\\ 1+\sum\limits_{k=1}^{m-1}\dfrac{T^m\left(\lambda_{1,k}\right)}{\lambda_{1,k}^2L_{2m-2}'\left(\lambda_{1,k}\right)}, & |\beta|=1\\ \sum\limits_{k=1}^{m-1}\dfrac{T^m\left(\lambda_{1,k}\right)}{\lambda_{1,k}^2L_{2m-2}'\left(\lambda_{1,k}\right)}-\dfrac{2m\mathrm{ch}(2\pi h)c_{2m-2}+c_{2m-3}}{c_{2m-2}^2}, & |\beta|=0\end{cases}, \quad (24)$$

bu yerda

$$T^m(\lambda)=\left(\lambda^2-2\lambda\mathrm{ch}(2\pi h)+1\right)^m,$$

$$L_{2m-2}(\lambda)=-2\lambda\mathrm{sh}(2\pi h)T^{m-1}(\lambda)+\sum_{k=1}^{m-1}a_kP_{2k}(\lambda)T^{m-k-1}(\lambda),$$

bunda

$$P_{2k}(\lambda)=\mathrm{e}^{-2\pi h}\left(\left(\lambda\mathrm{e}^{2\pi h}-1\right)^{k+1}\right)E_{k-1}\left(\lambda\mathrm{e}^{-2\pi h}\right)+\ \mathrm{e}^{2\pi h}\left(\left(1-\lambda\mathrm{e}^{-2\pi h}\right)^{k+1}\right)E_{k-1}\left(\lambda\mathrm{e}^{2\pi h}\right)$$

Xulosa qilib shuni qayd qilamizki, qurilgan differensial operatorlar mexanikada, tebranishlar nazariyasida nihoyatda juda ko‘p qo‘llaniladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida L. Xyormanderning $H_2^\mu(R)$ fazosida taqribiy integrallash formulalarining optimizatsiya masalasi qaralgan. Bu yerda optimal kvadratur formulalar qurish masalasidan iborat bo‘lgan $H_2^\mu(R)$ L. Xyormander fazosida $m=1,2$ bo‘lganda panjarali kvadratur formulalarning optimal koeffitsiyentlarini va $u_2(h\beta)$ noma’lum funksiyasini topish algoritmi berilgan. Shu maqsadda xatolik funksionali normasiga eng kichik qiymat beruvchi kvadratur formulalarning koeffitsientlarini topishimiz kerak. Keyinchalik, optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlari uchun umumlashgan funksiyalardan iborat ifodalarga Furye almashtirishlarini qo‘llab, chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz. Shunday qilib, biz panjarali optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari uchun aniq formulalar topamiz. Shu bilan birga, biz ma’lum differensial operatorning diskret analoglarini va uning xossalarini qo‘llab, optimal koeffitsiyentlarni hamda panjarali optimal kvadratur formulalar koeffitsientlarini yaqqol ifodasini olishni algoritmini yaratdik. Shu bilan birga panjarali optimal kvadratur formulalar xatolik funksionallari normasining kvadratini hisoblaydigan formulani ham oldik.

3.1 paragrafda $m=1$ bo‘lganda $H_2^\mu(R)$ fazosida optimal panjarali kvadratur formulaning koeffisiyentlari hisoblangan.

Quyidagi isbotlangan:

Teorema 9. L.Xyormanderning $H_2^\mu(R)$ fazosida (1) ko‘rinishdagi barcha kvadratur formulalar orasidan

$$\overset{0}{C}[\beta]=\mathrm{cth}(2\pi h)\cdot\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi|h\beta-y|}dy-\frac{1}{2\mathrm{sh}(2\pi h)}\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi|h(\beta-1)-y|}dy-$$

$$-\frac{1}{2\operatorname{sh}\left(2\pi h\right)}\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi|h(\beta+1)-y|}dy, \quad \beta=1,2,...,N-1, \tag{25}$$

$$\overset{0}{C}[0]=\operatorname{cth}(2\pi h)\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi y}dy-\frac{\mathrm{e}^{-2\pi h}}{2\operatorname{sh}(2\pi h)}\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi y}dy-$$
$$-\frac{1}{2\operatorname{sh}(2\pi h)}\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi|h-y|}dy, \tag{26}$$

$$C[N]=\operatorname{cth}(2\pi h)\cdot\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi|Nh-y|}dy-\frac{1}{2\operatorname{sh}(2\pi h)}\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi|h(N-1)-y|}dy-$$
$$-\frac{1}{2\operatorname{sh}\left(2\pi h\right)}\int_0^1 p(y)\mathrm{e}^{-2\pi|h(N+1)-y|}dy. \tag{27}$$

koeffitsiyentlar bilan aniqlanadigan

$$\int_0^1 p(x)f(x)dx\approx\sum_{\beta=0}^{N}\overset{0}{C}[\beta]f[\beta], \tag{28}$$

vaznli panjarali kvadratur formula yagona optimal kvadratur formuladir, bu yerda

$$\ell_N(x)=p\left(x\right)\varepsilon_{[0,1]}(x)-\sum_{\beta=0}^{N}\overset{0}{C}_{\beta}\,\delta(x-x_{\beta}), \tag{29}$$

(28) - optimal kvadratur formulaning (29) - xatolik funksionalidan iborat.
Agar (28) - kvadratur formulada $p\left(x\right)=1$ deb olsak, u holda quyidagilar o‘rinlidir.

Natija 1. L. Xyormanderning $H_2^{\mu}\left(R\right)$ fazosida barcha (1) ko‘rinishdagi kvadratur formulalar orasidan, teng taqsimlangan tugun nuqtalar orqali (2) - funksional xatolikning normasini minimumga erishtiradigan optimal koeffitsiyentlar bilan $m=1$ va $p\left(x\right)=1$ bo‘lganda, optimal kvadratur formulaning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi

$$\int_0^1 f\left(x\right)dx\cong\frac{\left[\operatorname{ch}\left(2\pi h\right)-1\right]}{\pi\operatorname{sh}\left(2\pi h\right)}\left[\frac{1}{2}\left(f\left(0\right)+f\left(1\right)\right)+\sum_{\beta=1}^{N-1}f\left(h\beta\right)\right], \tag{30}$$

bu yerda

$$C\left[0\right]=\frac{\left[\operatorname{ch}\left(2\pi h\right)-1\right]}{2\pi\operatorname{sh}\left(2\pi h\right)},$$
$$C\left[\beta\right]=\frac{\left[\operatorname{ch}\left(2\pi h\right)-1\right]}{\pi\operatorname{sh}\left(2\pi h\right)},\ \beta=\overline{1,N-1}, \tag{31}$$
$$C\left[N\right]=\frac{\left[\operatorname{ch}\left(2\pi h\right)-1\right]}{2\pi\operatorname{sh}\left(2\pi h\right)},$$

bunda h kichik parametr.

Agar (28) kvadratur formulada $p(x)=\mathrm{e}^{2\pi i\omega x}$ deb olsak, u holda quyidagilar o‘rinlidir.

Natija 2. L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ fazosida barcha (1) ko‘rinishdagi kvadratur formulalar orasidan, teng taqsimlangan tugun nuqtalar orqali (3) funksional xatolikning normasini minimumga erishtiradigan optimal koeffitsiyentlar bilan $m=1$ va $p(x)=\mathrm{e}^{2\pi i\omega x}$ bo‘lganda, optimal kvadratur formulaning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi

$$\int_0^1 \mathrm{e}^{2\pi i\omega x} f(x)dx \approx \sum_{\beta=0}^{N} \overset{0}{C}[\beta] f[\beta], \tag{32}$$

bu yerda

$$\begin{aligned}
C[0] &= \frac{1}{2\pi\left(1+\omega^2\right)\mathrm{sh}(2\pi h)}\left[\mathrm{e}^{2\pi h}-\mathrm{e}^{2\pi i\omega h}+i\omega\,\mathrm{sh}(2\pi h)\right],\\
C[\beta] &= \frac{\mathrm{e}^{2\pi i\omega h\beta}}{\pi\left(1+\omega^2\right)\mathrm{sh}(2\pi h)}\left[\mathrm{ch}(2\pi h)-\cos(2\pi h)\right],\ \beta=\overline{1,N-1}\ ,\\
C[N] &= \frac{\mathrm{e}^{2\pi i\omega}}{2\pi\left(1+\omega^2\right)\mathrm{sh}(2\pi h)}\left[\mathrm{ch}(2\pi h)-\mathrm{e}^{-2\pi i\omega h}-i\sin(2\pi h)\cos(2\pi h)\right],
\end{aligned} \tag{33}$$

bunda h kichik parametr.

3.2 paragraf $u_2(h\beta)$ noma’lum funksiyani topish algoritmiga bag‘ishlangan va quyidagi isbotlangan

Lemma 5. $u_2(h\beta)$ noma’lum funksiyaning ko‘rinishi quyidagicha

$$u_2(h\beta)=\begin{cases}\mathrm{e}^{2\pi h\beta}\left(a_1^-+a_2^-h\beta\right), & \beta<0,\\ f_2[\beta], & 0\le\beta\le N,\\ \mathrm{e}^{-2\pi h\beta}\left(a_1^++a_2^+h\beta\right), & \beta>N.\end{cases} \tag{34}$$

3.3 paragrafda $H_2^{\mu}(R)$ L.Xyormander fazosida kvadratur formulalarning optimal koeffitsiyentlarini topish masalasi muhokama qilingan. Bu yerda 3.2 paragrafda keltirilgan algoritmdan foydalanib, $m=2$ da (1) ko‘rinishdagi kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlari uchun ixtiyoriy $N=1,2,...$ larda oshkor formulalarni olamiz.

Teorema 10. L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ fazosida teng taqsimlangan tugun nuqtalar bilan, (29) xatolik funksionalini minimumga erishtiradigan (28) - kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlari, $m=2$ va $p(x)=1$ bo‘lganda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$C[\beta]=\rho\left\{k_1-k_2\begin{cases}\left(1+\lambda_1^N\right),\beta=0,\\ \left(\lambda_1^\beta+\lambda_1^{N-\beta}\right),\beta=\overline{1,N-1},\\ \left(\lambda_1^N+1\right),\beta=N,\end{cases}\right\},$$

bu yerda

$$k_1=\left[d+2\left(1+A_1\right)\right]+2\frac{A_1\lambda_1}{1-\lambda_1}\quad \text{va}\quad k_2=A_1\left(M-\frac{1-(1+\pi)\mathrm{e}^{-2\pi}}{2\left(\mathrm{e}^{2\pi h}-\lambda_1\right)}\right), \tag{35}$$

$$M=\left\{\frac{1}{2}\left\{2\frac{1}{1-\lambda_1}-\frac{\mathrm{e}^{-2\pi}}{\mathrm{e}^{2\pi h}-\lambda_1}\left[1+\pi+\frac{\pi h\mathrm{e}^{2\pi h}}{\mathrm{e}^{2\pi h}-\lambda_1}\right]+\frac{\mathrm{e}^{2\pi h}}{1-\lambda_1\mathrm{e}^{2\pi h}}\left[\frac{\pi h}{1-\lambda_1\mathrm{e}^{2\pi h}}-1\right]\right\}\right\}, \tag{36}$$

$$A_1=\frac{\lambda_1^4-4\mathrm{ch}(2\pi h)\lambda_1^3+2\left(1+2\mathrm{ch}^2(2\pi h)\right)\lambda_1^2-4\mathrm{ch}(2\pi h)\lambda_1+1}{\lambda_1^2-1}, \tag{37}$$

$$\lambda_1=\frac{\left(2\pi h-\mathrm{sh}(2\pi h)\mathrm{ch}(2\pi h)\right)-\sqrt{\left(1-\mathrm{ch}^2(2\pi h)\right)\left(4\pi^2h^2-\mathrm{sh}^2(2\pi h)\right)}}{2\pi h\mathrm{ch}(2\pi h)-\mathrm{sh}(2\pi h)}, \tag{38}$$

$$\rho=\frac{1}{\pi\left(2\pi h\mathrm{ch}(2\pi h)-\mathrm{sh}(2\pi h)\right)}, \tag{39}$$

$$d=2\left(\frac{2\pi h-\mathrm{sh}(2\pi h)\mathrm{ch}(2\pi h)}{2\pi h\mathrm{ch}(2\pi h)-\mathrm{sh}(2\pi h)}-2\mathrm{ch}(2\pi h)\right)+\frac{A_1}{\lambda_1} \tag{40}$$

bunda A_1 va λ_1 (11), (12) dan aniqlanadi va $|\lambda_1|<1$, h - kichik parametr.

3.4. paragrafda L.Xyormander fazosida optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasi hisoblangan, ya'ni quyidagi o'rinli.

Teorema 11. L. Xyormanderning $H_2^\mu(R)$ fazosida (28) - kvadratur formula xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi tenglik bilan aniqlanadi. $\left\|\overset{o}{\ell}\,|\,H_2^{\mu*}(R)\right\|^2=\int_0^1\int_0^1 v_m(x-y)dxdy-2\sum_{\beta=0}^{N}\overset{o}{C}_\beta\int_0^1 v_m(x-h\beta)dx+\sum_{k=0}^{N}\sum_{\beta=0}^{N}\overset{o}{C}_\beta\overset{o}{C}_k v_m(hk-h\beta)$.

bu yerda $\quad v_m(x)=\dfrac{\pi\,\mathrm{e}^{-2\pi|x|}}{2^{2m-2}\cdot(m-1)!}\displaystyle\sum_{k=0}^{m-1}\frac{(2m-k-2)!\cdot(4\pi)^k}{k!\cdot(m-k-1)!}|x|^k$.

XULOSA

Dissertatsiya ishi differensiallanuvchi funksiyalarning L. Xyormander fazolarida integrallarni taqribiy hisoblash uchun optimal kvadratur formulalar qurishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari yangi bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. L. Xyormander fazosida vaznli kvadratur formula xatolik funksionalining ekstremal funksiyasi topilgan;

2. Vaznli kvadratur formula xatolik funksionalining normasi hisoblangan.

3. L. Xyormander fazosida vaznli optimal kvadratur formula mavjudligi va yagonaligi isbotlangan;

4. Vaznli optimal kvadratur formulalar qurishda eng katta ahamiyatga ega bo‘lgan $2m-$tartibli differensial operatorining $D_m[\beta]$ diskret analogi qurilgan;

5. L. Xyormanderning $H_2^{\mu}(R)$ fazosida optimal kvadratur formulalarini qurish algoritmi ishlab chiqilgan;

6. Ushbu algoritm $m=1$ va $p(x)=1$ hollari uchun realizatsiya qilingan;

7. $m=1,2$ hollari uchun yangi optimal kvadratur formulalar olingan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЖАЛОЛОВ ИКРОМЖОН ИСОМИДДИНОВИЧ

ОПТИМАЛЬНЫЕ КВАДРАТУРНЫЕ ФОРМУЛЫ В ПРОСТРАНСТВЕ Л. ХЁРМАНДЕРА

**01.01.03 - Вычислительная и дискретная математика
(физика и математика)**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2021.2.PhD/FM604.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель: **Шадиметов Холматвай Махкамбаевич**
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хаётов Абдулло Рохмонович**
доктор физико-математических наук, профессор

Урунбоев Эркин
доктор физико-математических наук, доцент

Ведущая организация: **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится «______» _____________ 2025 года в ______ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № _____). Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан «______» _______________2025 года.

(протокол рассылки №________ от «______» _______________2025 года).

М.М. Арипов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

З.Р. Рахмонов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н.

Р.Д. Алоев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени доктора наук, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность востребованность темы диссертации. В мире, многочисленные научные и практические исследования, сосредоточенные на анализе теории колебаний, электродинамики, дифференциальных уравнений с частными производными в задачах техники, численное решение регулярных и сингулярных интегральных уравнений с высокой точностью, в основном приводится к построению оптимальных квадратурных и кубатурных формул. Обычно оптимизация приближенных вычислений определённых интегралов позволяет предотвращать больших количеств вычислений. Оптимизация процессов приближенных вычислений определённых интегралов при больших вычислениях будет полезными, если вычисления производиться с помощью квадратурных и кубатурных формул, при этом оптимизируется и сами формулы. Поэтому построение оптимальных квадратурных и кубатурных формул, создание алгоритмов и приблизительное вычисление определённых интегралов с высокой точностью, а также построение оптимальных квадратурных формул дифференцируемых функций в пространстве Л.Хёрмандера считаются одним из основных задач вычислительной математики.

В настоящее время в мире большое значение приобретает построения оптимальных и наилучших квадратурных, кубатурных формул, которые имеют высокую точность в функциональных пространствах Л.Хёрмандера. В частности, широко используется построение оптимальных и наилучших квадратурных, кубатурных формул в пространстве Л. Хёрмандера, доказательство их существования и единственности в этом пространстве, а также оценка их погрешностей. Известно, что численно-аналитические решения дифференциальные уравнения в частных производных, регулярных и сингулярных интегральных уравнений, образующихся при математическом моделировании колебательных процессов, выражаются через оптимальные квадратурные и кубатурные формулы и являются объектом исследования в теории численных методов, вычислительной математике и других подобных задач. По этой причине построение оптимальных квадратурных и кубатурных формул в пространстве Л.Хёрмандера, оценки их погрешностей является одним из целевых научных исследований.

В нашей стране большое внимание уделяется фундаментальным наукам, имеющие научные и практические применения, такие как физика солнца, теория колебаний, решения задач механики численно-аналитическими методами. В частности, достигались важные результаты по построению оптимальных квадратурных и кубатурных формул, оценки их погрешности в пространствах Л.Хёрмандера. Проведение научных исследований на уровне международных стандартов по «Функциональному анализу, математическая физика, дифференциальные уравнения, математическое моделирование, вычислительная математика и дискретная математика, теория вероятностей и математическая статистика»[2] является одной из основных задач института Математики АНРУз имени В.И. Романовского. Для обеспечения выполнения постановления имеет важное значение использование преобразования Фурье на основе обобщённых функций, построение квадратурных и кубатурных формул, развитие теорий оптимальных квадратурных формул для оценки погрешностей в пространстве Л. Хёрмандера.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан УП –№ 4947 от 07 февраля 2017 года “О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, УП-№60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, в постановлениях ПП – № 2789 от 17 февраля 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности”, ПП – № 2909 от 20 апреля 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, ПП –№ 3682 от 27 апреля 2018 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов”, ПП – № 4708 от 07 мая 2020 года “О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики”, а также в других нормативно–правовых актах, относящихся к данной области деятельности.

